# XORAZM VILOYATINING
# TASHQI SAVDO AYLANMASI

(*2019 yil yanvar-sentabr*)

2019 yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 351902,5 ming AQSH dollarini tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 191,2%ga oʻsdi. Shu jumladan, eksport hajmi 113664,2 ming AQSH dollarga (156,1 %ga koʼpaygan) va import hajmi 238238,3 ming AQSH dollariga (oʻsish surʼati 2,1 marta)ga etdi. Tashqi savdo saldosi minus 124574,1 ming AQSH dollarini tashkil qildi.

**Viloyatning tashqi savdo aylanmasi**
(*ming AQSH dollari*)




Soʻnggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qoʻllab-quvvatlash, import oʻrnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli oʻzgarishga erishildi.

## Tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko‘rsatkichlari dinamikasi
(*ming AQSH dollari*)




2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning boshidan buyon deyarli o‘zgarishsiz qolmoqda.

## Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar
(*ming AQSH dollari*)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | ulushi, % | o‘zgarish sur’ati, % |
| Xitoy | 92947,1 | 4608,5 | 88338,6 | 26,4 | 2,2 m. |
| Rossiya | 56088,6 | 22695,0 | 33393,6 | 15,9 | 101,0 |
| Qirg’iziston | 36914,8 | 36340,1 | 574,7 | 10,5 | 47,2 m. |
| Turkiya | 31699,3 | 6067,2 | 25632,1 | 9,0 | 2,7 m. |
| Qozog’iston | 26109,3 | 18666,8 | 7442,5 | 7,4 | 136,7 |
| Latviya | 15289,0 | 0,7 | 15288,3 | 4,3 | 3,0 m. |

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,3%ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 169,4%ni tashkil qildi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 59,7%ni tashkil qilgan bo‘lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi o’tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martagacha o’sdi.

**Tashqi savdo aylanmasidagi MDX mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**
(*ming AQSH dollari*)



## Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi

(*ming AQSH dollari*)

**2018 YIL
YANVAR-SENTABR**




**2019 YIL
YANVAR-SENTABR**




| | | | |
|---|---|---|---|
| | Paxta tolasi | | Qora va rangli metallar |
| | Oziq-ovqat mahsulotlari | | Mashina va asbob-uskunalar |
| | Kimyo mahsulotlari va buyumlari | | Xizmatlar |
| | Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | | Boshqalar |

## Eksport tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Ming AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | Ming AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | Ming AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| **Eksport** | 113664,2 | 156,1 | 100,0 | 90204,7 | 186,5 | 100,0 | 23459,5 | 95,9 | 100,0 |
| **Paxta tolasi** | 4948,0 | 51,4 | 4,4 | 191,6 | 123,0 | 0,2 | 4756,4 | 50,2 | 20,3 |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 64379,8 | 3,3 m. | 56,6 | 59086,3 | 3,2 m. | 65,5 | 5293,5 | 4,2 m. | 22,6 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 661,5 | 77,0 | 0,6 | 409,5 | 75,0 | 0,5 | 252,0 | 80,6 | 1,1 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | 1175,3 | 6,5 m. | 1,0 | 949,0 | 0,0 | 1,1 | 226,3 | 12,6 m. | 0,9 |
| **Qora va rangli metallar** | 116,7 | 0,0 | 0,1 | 116,7 | 0,0 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| **Mashina va asbob - uskunalar** | 79,7 | 132,0 | 0,0 | 66,8 | 110,6 | 0,0 | 12,9 | 0,0 | 0,0 |
| **Xizmatlar** | 9249,2 | 132,9 | 8,2 | 6320,4 | 110,6 | 7,0 | 2928,8 | 2,4 m. | 12,5 |
| **Boshqalar** | 33054,0 | 9,2 | 29,1 | 23064,4 | 97,8 | 25,6 | 9989,6 | 82,1 | 42,6 |

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-sentabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

**Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi**
*(o'tgan yilga nisbatan, %)*




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 56,1%ga ko'paygan.

## Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, ming AQSH dollari)




## Tovar va xizmatlar importi tarkibi
(*ming AQSH dollari*)







Oziq-ovqat mahsulotlari
Kimyo mahsulotlari va buyumlari
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
Qora va rangli metallar
Mashina va asbob-uskunalar
Xizmatlar
Boshqalar

## Import tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Ming AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | Ming AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | Ming AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| **Import** | 238238,3 | 2,1 m. | 100,0 | 51667,0 | 146,0 | 100,0 | 186571,3 | 2,5 m. | 100,0 |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 9600,8 | 106,8 | 4,1 | 7923,2 | 2,0 m. | 15,3 | 1677,6 | 32,9 | 0,9 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 11513,8 | 84,5 | 4,8 | 6067,6 | 126,4 | 11,7 | 5446,2 | 61,7 | 3,0 |
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | 454,3 | 4,4 m. | 0,1 | 424,2 | 7,9 m. | 0,8 | 30,1 | 61,7 | 0,0 |
| **Qora va rangli metallar** | 3523,5 | 91,2 | 1,5 | 1401,0 | 52,7 | 2,7 | 2122,5 | 175,7 | 1,1 |
| **Mashina va asbob-uskunalar** | 131407,5 | 2,4 m. | 55,2 | 5430,7 | 134,7 | 10,5 | 125976,8 | 2,5 m. | 67,5 |
| **Boshqalar** | 81738,4 | 2,7 m. | 34,3 | 30420,3 | 152,4 | 59,0 | 51318,1 | 5,1 m. | 27,5 |

Import qilingan tovar va xizmatlarning o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-sentabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan.

**Tovarlar va xizmatlar importining o‘sish sur’atlari dinamikasi**
*(o‘tgan yilga nisbatan, %)*




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o‘sish sur’atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovar va xizmatlar o’tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko‘paygan.

**Tashqi savdo aylanmasida Import dinamikasi**
(oylar kesimida, ming AQSH dollari)



## Viloyat tovar va xizmatlar importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

**2018 YIL YANVAR-SENTABR** | **2019 YIL YANVAR-SENTABR**




2019 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatga 48 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik boʻlgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Latviya, Koreya va Niderlandiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 190570,7 ming AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 80,0 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo’limi
Tel.:62-224-65-09